


MAKTABLARDA MA'NAVYI-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORILIGI

Satlikova Muhayyo

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810262>

Beruniy tumani XTBga qarashli 40-sonli maktabning Ijodiy-madaniy ishlar bo'yicha targ'ibotchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5040-son qarori 7-bandi va O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O’zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining 2021-yil 20-apreldagi “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida ijodiy-madaniy masalalar bo’yicha targ’ibotchi lavozimini amaliyotga joriy etish to’g’risida”gi qo’shma qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan, madaniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish iqtidorli o’quvchi yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, ularni ro’yobga chiqarish hamda yanada rivojlantirish ishlari umumiy o’rta ta’lim maktablarida sifatli tashkil qilingan.



Xususan, o’zim faoliyat yuritayotgan Beruniy tumani Xalq ta’lim bo’limiga qarshli 40-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabida o’quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun “Yosh ijodkorlar”, “Mohir qo’llar”, “Kamoliddin Behzod izdoshlari” kabi to’garaklar tashkil qilingan. To’garakka a’zo o’quvchilar o’z ishining ustalaridan ilm va hunar sirlarini o’rganib, turli tanlovlarda ishtirok qilib faxrli o’rinlarni egallab kelishmoqda. Aniqsa, o’zim rahbarlik qilayotgan “Yosh ijodkorlar” to’garagi a’zolarining ijodiy qobiliyatlari aniqlanib hikoya, she’r, maqolalari tuman va respublika gazeta, jurnallarida nashr qilindi.

O’quvchi-yoshlar o’rtasida kitobxonlikni targ’ib qilish va kitob mutolaasini yaxshilash maqsadida maktab o’quvchilari o’rtasida “Mening sevimli kitobim”, “Bir asar tarixi”, “Kitobning inson kamolotidagi o’rni” mavzularida

davra suhbatlari, maktab kutubxonasini boyitishda mahalla faollari, ota-onalar bitiruvchilar va homiylar yordamidagi “Kitob marofon”lari, “O’n kunda o’nta she’r” kabi mushoira kechalari adabiyotga qiziquvchilarni birlashtirib kelmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj, tarbiyasi og’ir bolalarning ma’naviy-ruhiy holatini yaxshilashda bu kabi ishlar ijobiy ta’sir qilmoqda. Yozuvchi, shoirlarning tavalludiga bag’ishlangan, tadbirlar, taniqli ijodkorlar, davlat arboblari bilan uchrashuvlar ijod ahliga hurmat ruhida tarbiyalab o’quvchilarni ham ijod qilishga undamoqda.



Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Beruniy tumani bo’linmasi tomonidan rejalashtirilgan “Yo’l xaritasi” asosida umumiy o’rta ta’lim Ijodiy-madaniy ishlar bo’yicha targ’ibotchilariga iqtidorli bolalar bilan qanday ishlashish va boshqa masalalar yuzasidan seminar-treninglar tashkillashtirib, uslubiy yordam berib kelinmoqda.

Umuman olganda, davlatimiz tomonidan bu borada olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar o’quvchi-yoshlarni yuksak didli, mustaqil fikrli, keng dunyoqarashga ega bo’lgan fidoyi vatanparvar yoshlar bo’lib tarbiyashga xizmat qiladi.